

Muhabbat haqida aytilmagan qo‘shiq – Murod Muhammad Do‘stning “Dasht-u dalalarda” hikoyasi tahlili

Yozuvchi Nazar Eshonqul shunday deb yozgan edi: “Mendan bitta asar bilan yozuvchi adabiyotda qolishi mumkinmi deb so‘rashsa, “Ha! Bu Murod Muhammad Do‘st va uning “Dasht-u dalalarda” hikoyasi”, deb javob qaytarardim... Hikoya xalq og‘zaki ijodi va XX asrdagi nasrning eng so‘nggi yutuqlarini yelkasida ko‘tarib turibdi”. Topib aytilgan e‘tirofda hikoyada ikki asos folklor va dunyo adabiyotining poetik an‘analarini o‘zlashtirganligi ta‘kidlanadi.

Murod Muhammad Do‘st dunyo adabiyotida mavjud an‘ana va adabiy usullarni milliy nasrimizga mohirlik bilan payvand qilishga erishgan ijodkorlardan biri. Adabiy payvand oson ish emas, aslini saqlab, yangisini kerak joydan ulay olish mahorat va farosatni talab qiladi. Buning uchun yaratganning nasibasi – Iste‘dod bo‘lishi kerak. Yaratgan zot esa bu borada Murod Muhammad Do‘stni siylagan. Ba‘zi yozuvchilarimizning taqlid ko‘chasida chalg‘ib ketishiga ham ayni adabiy “payvand”ni qila olmasligi pand beradi, nazarimizda.

Abadiyat ayvonida qolishi bashorat qilingan (Nazar Eshonqul tomonidan berilgan ta‘rif nazarda tutilmoqda) hikoya esa yozuvchining butun ijodiga tenglashtirilarkan, bunga asos yetarlimikin, degan ishtiboh ko‘ngildan kechadi. Shu bois muallifning ulkan hayot haqiqatidan xabar beruvchi “Dasht-u dalalarda” asarini tahlil etishga, tagmatnidagi ma‘nolarni anglashga harakat qilamiz. Hikoyadagi Polvon va Xatcha obrazi o‘zining samimiy hamda betakrorligi bilan kitobxon qalbidan joy olib ulgurgan. Polvon qiyofasida “jonli”, nafasi bor hech kimga o‘xshamagan xarakter egasi gavdalanadi. U Xatchaga nisbatan sevgisini hech bir o‘rinda oshkor qilmaydi, so‘zbozlik yo‘q, ammo ich-ichidan ayolini yaxshi ko‘radi. Polvon o‘zi gapiradi, o‘zi sevadi, o‘zi kuyinadi, hammasi tabiiy va ishonarli, hech qanday yasamalik, soxtalikni sezmaydiz. Polvonning Xadichani Xatcha deyishi jozibani kuchaytirgan, obrazga “tiriklik suvi” singari jon bag‘ishlaydi.

Hikoya “Xadicha ketdi-yu, ko‘nglidan halovat ham ketdi”, degan jumla bilan boshlanadi. Demak, voqelik favqulodda yuz bergan hodisa bilan boshlanadi. Ayol uydan shunchaki ketmagan, bo‘lmasa uning ketishi bilan “ko‘nglidan halovat ham” ketarmidi. Polvon uchun Xatchaning borligi nafaqat ko‘ngil halovati, balki tirikligi bilan teng. U bo‘lmasa uyda huzur yo‘q, orom yo‘q. Anglanadiki, Xatcha uyning bekasi va Polvon qalbining egasi. Muallif asarda fikr zarbini boshlanmadagi ketish xabari aytilgan jumlagacha yig‘adi. E‘tibor mana shu jumlaning ochiqlash, izohlash va sharhlashga qaratiladi. Polvon uyiga kira olmay qoldi, yuragi izn bermaydi. Sababi “uydagi hamma narsa Xadichani esga soladi: ostonaga qadami tekkan, devorga yelkasi – chidab o‘tirishi qiyin bo‘ldi”. Halovatidan ayrilgan Polvonning (ismi jismiga tenglashgan qahramon – S.T.) yuragi “toriqdi”, odamlar malomat qilsa-da, bog‘dagi bobosidan qolgan yerto‘lada yashashni afzal bildi. O‘zi bilan iti Qoratoyni ham yerto‘laga olib kirdi.

Yerto‘la – mikroolam, olamning modeli. Qahramon nazdida xotini bilan yashagan uyi uning uchun butun koinot bilan teng. Shaklan kichik, ammo mazmunan olam bilan barobar. “Shifti past, agar chiroq bo‘lmasa, naq lahadning o‘zginasi...” – Yerto‘la lahadga qiyoslanadi. Xatcha uyida yo‘qligi bois Polvon musofir g‘arib, kimsasiz odamga aylangan. Ayriliqqa o‘zini ko‘ndira olishiga ko‘zi yetmaydi, ammo chorasiz. Uning bu holati Qoratoyga ham ta’sir qildi, avval yerto‘lada yota olmay kechasi uvlab chiqadi, keyin egasining zabun ahvolini “tushunadi” chog‘i, indamay qoladi. Polvonni Qoratoy tushundi, Xatcha tushunmadi. Qizi Chamanni ham olib ketgani dard vaznini og‘irlashtirdi. “Lahad”ga o‘xshatilgan yerto‘lada o‘tirib Qoratoyga so‘zlaydi, boshqa eshitadigan quloq yo‘q. It gaplariga tushunmasa ham egasining mungli qarashiga chiday olmay ko‘zini yumib yotadi. Polvon aytganidek, “har kim o‘z yo‘liga ekan...”.

Muallif Adolat obrazi talqinida folklor ohanglaridan unumli foydalangan. U qahramonni ruhiy-ma’naviy yangilanish sari undovchi kuch sifatida yuk tashiydi, ismida ham aytilmagan gaplarga ishora bor. Qaldirg‘och Alpomishni “mardning yori toy-taloshga qolama” deb mulzam qilgandek, Adolat akasiga “bu kuningizdan o‘lganingiz behroq edi” deya ta’na qilib og‘rinadi. Adolat zimmasiga yuklatilgan vazifani bajargach, voqealar markazidan chekinadi.

Polvon qirq kundan beri arazlab uyiga ketgan xotinini xayolidan chiqara olmaydi. Ba’zan xotining “siyog‘i ham esdan chiqqanday” bo‘lib uni eslaydi. Darrovga shamollab qoladigan ayolning ivirsirab yurishini ham ko‘ngli tusay boshlaydi. Aslida, xotin xohlab ketgani yo‘q, to‘g‘rirog‘i haydaldi. Erining qayt deyishini intiq bo‘lib kutdi, to‘xtab-to‘xtab kutdi. Ammo Polvon shashtidan tushmadi, kamiga uydan qizini sudrab chiqishi Xatcha og‘ir botdi, xo‘rligi keldi “Musht yeganda yig‘lamagan ayol, buni eshitib yomon bo‘shashdi, ko‘ziga yosh oldi”. Nohaqlikdan og‘ringan Xatcha uchun endi orqaga yo‘l yo‘q edi...

Ayriliq muddati ulug‘larimiz uzlatga chekinib, nafsini isloh qilish uchun o‘tiradigan chilla vaqti bilan teppa-teng. Lahadda yotgan odam yangi hayotga o‘tadi, ruhiy jihatdan yangilanadi. Hikoyada Polvonning sherigi Hasanboy xotini bilan oz muddat yashab ajrashgani qistirib o‘tiladi. Bizning Polvon esa unutilib yuboradiganlardan emas. Chilladan odam tozalanib, yangilanib chiqqani singari Polvon ayoli, sha’ni haqida qaytadan o‘ylay boshlaydi. Shunchaki mulohazaga berilib o‘tirmaydi, amaliy harakatga o‘tadi. Xatchani taloq qilishga “ko‘zi qiymaydi”, uning kiyimlarini qirqib tashlaydi, kultepaga ko‘madi, voz kechadi, ammo ko‘ngil uza olmaydi. O‘zini ovutish va yupatish yo‘lida qilgan harakatlari taskin bermaydi, ko‘ngildagi “senga shunchalik ko‘ngil qo‘yib edimmi” so‘rovi uni tinmay ta’qib qiladi, har qancha o‘zini olib qochsin, naf yo‘q. So‘rov kuchga kirib, Polvon hayotiga qaytadan razm soladi, ko‘ngil qatlariga yashiringan istakni anglashga harakat qiladi, so‘rovga javobni topganday bo‘ldi. Javobdan o‘ziyam

hayratlanadi. Polvonning hayrati bizga ham “yuqmay” qolmaydi, qoniqish hosil qilasiz. Mana shu “yuqdira” olish ham muallif mahoratidan darak beradi.

Polvon Xatchani shunchalar sevishini shu paytgacha bilmas yoki tan olmas edi. Ayoli ketgandan keyingina uning qadri qiymatini tushunib yetadi. Salim saqichning aqlga sig‘maydigan tuhmati Polvon ko‘ngliga dog‘ bo‘ldi. “Xadicha qasam ichdi, qizini, enasini, Xudoning o‘zini guvoh qildi. Lekin Polvon ishonmadi”. Bir ko‘ngli unga ishongisi keldi, ammo shaytonning qo‘li baland keldi. “Kayfi bor edi, chekayotgan azobi bol tuyuldi – xotiniga ishonmadi”. Oxiri nafsini sindirdi, ko‘ngliga quloq tutdi. Xatchani olib kelgani yo‘lga chiqdi. Birdan Sho‘rquduq tomonga emas, Salim saqich uyiga bordi. Anchadan beri urinib orani ocholmay yurgandi, endi vaqti bo‘lganini bildi. Polvonda aybdorlik hissi uyg‘ondi, avval arazlagan bo‘lsa, endi holatini bilmas, o‘zini boshqara olmasdi.

Hikoyada e‘tibor qaratadigan juda muhim nuqta bor – xalq donishmandligi masalasi. Muallif aynan mana shu nuqtadan turtki vazifasi o‘rnida unumli foydalangan, voqealar shu tobdan kutilmagan ravishda o‘t oladi. Polvon hayotini hal qiluvchi jarayonlar boshlanadi – hikoyada Adolat yondira olmagan o‘tni alangaga aylantirish vazifasi Nazir Maxsum chekiga tushadi. Polvon “men avval old-ortini bir o‘ylab olay...” deya yo‘lini ayirib ololmay turganda, maxsum unga qo‘shimcha “motor” sifatida ko‘makka keladi.

Oradan qirq kun o‘tsa-da, yechimini topa olmay turgan oilaning taqdiri go‘yo qil ustida turgandek, arosatda qolgan. Xalqda shunday paytda oraga elchi solinadi. Murosaning xalqona yo‘li. Kayvonilar bu usuldan kerak o‘rinda foydalanadi. Elchi ikki tomon uchun ham xolis odam bo‘lishi lozim. Maxsum Polvonning qishloqdoshi unga begona emas. Teranroq nazar solinsa, u Sho‘rquduqliklar tomonidan tayinlangan vakil. Aslida, Nazir maxsum chindan to‘yga aytgani keldimi yoki Sho‘rquduqqa ketayotib taloq vakolatini olib ketganimi? Taloq yo‘l ustida so‘raladigan masalami? Hikoyadagi voqealar pishib yetilib bormoqda. Nazir maxsum gapni uzoqdan boshlaydi, go‘yo to‘yga aytgan kishi bo‘lib. Bunday vaziyatda masalaga dabdurustdan o‘tib bo‘lmaydi. Polvonning fe‘li ma‘lum. Kayvoni gapni qachon va qayerdan boshlashni biladi. Suhbatdoshini asta-sekin avrab gapni asosiy o‘q tomirga borib ulaydi. Gap taloq masalasiga kelganda maxsum Polvoni avrab yo‘lga soladi, talog‘ini aytiradi ham. Ammo masala shu bilan yechim topmaydi. Polvon Xatchaning javobini berishi bilan hayotda hech vaqosiz, bo‘m-bo‘sh qolganday his qiladi. Taloq inson hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega islomiy qadriyat: er va xotin o‘rtasida moddiy va ma‘naviy tugunni yechishdir. Nikohning muqaddas va yuki og‘irligini Nazir maxsum juda yaxshi biladi, ammo Polvon hamiyatiga tegadigan bahonaga zarurat bor edi. Maxsum “meniki bir sabab...” deya qistirib o‘tadi. U voqealar o‘t olishi uchun tutatqi vazifasini bajaradi.

Polvonning g'ujuri uyg'onadi. Xarakter shunday "jonli" sahnalarda bo'y ko'rsatadi. Ruhii holat ayni tig'iz pallaga o'tadi. Elchining gaplari Polvonning hamiyatiga tegdi, u kutilmagan xulosasini aytadi. "Mo'ljalni xato olgan ekansiz, – dedi Polvon. – Qo'yadigan xotinim yo'q!" Yechim o'ylaganday bo'lib chiqmaydi.

Salim saqichning nishonga tekkan iddaolari, bor alamini Xatchadan olgani, Nazar maxsumning beo'xshov "elchi"ligi barchasi Polvonning hamiyatiga tegadi. O'rliigi tutib xotining talog'ini ham berib qo'yadi, ammo gapini qaytib oladi. Nazar maxsumning tixirligiga "Ko'zim qiymayapti, Maxsum buva. Aytsammi deyma-u, qurg'ur ko'z qiymaydi" deb javob beradi. Xotinini chinakamiga qizg'ondi, erlik g'ururi bosh ko'tardi. Sir boy bergisi kelmasa-da, ko'zi qiymasligini yashirmaydi.

Xatchani ko'rib Polvon "o'zini nomard, noinsof sezdi". Ayolning holatini ko'rgach, Polvon butunlay boshqa odamga aylanadi. "Obketay deb keluvdim. Xatcha, – dedi sekin, ovozini o'zi ham tanimay". Polvonning o'jarligi sinib, "tentakligi" ketib xo'rliigi keldi nimagadir. Xotinida esa hali araz tarqamagan edi. Polvon xokisor odam qiyofasiga kira boshlaganda birdan mudray boshlagan g'ujur uyg'onib ketadi. E'tibor bersa, xotini uni behurmat qila boshlagan ekan, darrov nafsining chegaralarini qo'rishga o'tadi. "Sensirama, Xatcha, – dedi u. – Toza tomiring suvga yetgan bo'lsayam sensiramay gapir!"

Sattorqulning o'dag'aylashi, chiranishi, uning do'q-po'pisasiga bepisandlik qilsa-da, ammo "nomus zo'r chiqdi". Sattorqul andishani yig'ishtirib tahdidga o'tadi. Polvon hamiyatiga tegsa-da, ammo sabrni mahkam tutadi. "... yelkalari qisiq, qaddi bukik, bo'yniga musht tusharini kutgandek". Yelkalari qisiq – aybdor, qaddi bukik – chorasiz, bo'yniga musht tusharini kutgandek – hamma narsaga rozi holatida edi. Ifodalarda, har bir holatda yozuvchi qahramon ruhiyatiga aniq chizgilar chizadi.

Polvon nohaqligini angelaydi, holining abgorligidan uyaladi. Atrofdagilardan ko'ra o'zidan uyaladi Polvon. "Uyat, uyat, ne kunlarga qo'yding, Xatcha? Sendan shuni kutib edimmi, Xatcha? Ko'rgan birov nima deb o'ylaydi, enag'ar Xatcha?! Yer bilan bitta qilding-ku!.." Mard bo'lib xotini ostonasiga bosh egib keldi, qaynisidan haqorat eshitdi, kenglik qildi, ammo Xatcha unga nisbatan torlik qildi. Ichida o'zini aybdor sanagan Polvon endi Xatchani malomat qiladi. Har qancha nafsini sindirmasin "Nomus zo'r chiqdi, chidolmadi, taqqa to'xtadi". Polvonning o'ziga kelayotgan mushtni qaytarmoqchi bo'lgan zarbi Sattorqulni yiqitdi. Qaynisiga yegan mushti og'irlik qilib izidan quvib yetadi. Uch kishilab Polvonni yiqitib bog'lab shart qo'yishadi: "Xatchaning talog'ini aytasan!"

Polvon kaltaklanishiga qarshilik qilmaydi, qilsa ham bo'lardi. Ammo "etik qo'njiga qo'l yuborsa nomardlik bo'ladi", deya tantilik qilib tanasini kaltakka qo'yib beradi, dod-faryod qilmadi, vaziyatni kuzatdi. Hatto qamchi zarbidan joni og'risa-da, og'riqni sezmaydi. Joniga azob berayotgan qamchini "mayda o'rim" ekan deya baholashiga hayron bo'lmaysiz, ishonasiz. Har bir holat, har bir nafas, har bir lahza

muallif e'tiboridan chetda qolmaydi. Muallif bunday o'ta nozik holat tasviri bilan cheklanmaydi, qahramon ruhiyatining eng tig'iz lahzalarini chizishga harakat qiladi. Qamchining zarbidan tanasi tilka pora bo'ladi, urgichlar charchab, qoniga botirib talog'ini aytishga majbur qilsa-da, taslim bo'lmaydi. Tepkilar ostida zo'ravon etigining nag'ali yeyilgani, "qushning tiliday yupqa" bo'lib qolganligini, qamchining "vizillab" ovoz chiqarishini bilib, eshitib yotadi, o'zini qo'yib beradi. Polvon xuddi tush ko'rayotgandek, o'zini chetdan turib tomosha qiladi. Bunday azobga chidashiga uni nima majbur qildi? Polvonday g'ururi baland yigitning kaltakka ixtiyoriy taslim bo'lishiga majburlagan kuch nima?

Yozuvchi qahramon tiynatidagi yetakchi jihatlarni bir nuqtaga yig'adi, chinakam xarakter ko'z oldingizda namoyon bo'ladi. Siz go'yo uni avvaldan taniysiz, bilasiz. Hech qanday gumonlarsiz uning xatti-harakatlarini tabiiy ravishda qabul qilasiz. Muallif hech bir o'rinda ko'psozlik qilib ta'riflamaydi, jonli sahnalarda tabiiy harakatlari bilan ko'rsatib beradi. Qizig'i, hech bir o'rinda Polvon xotini sevrishini, u siz yashay olmasligini iddao qilmaydi, minnat qilmaydi, ko'nglidagini tilga chiqarib maqtanmaydi, jimgina ichida yaxshi ko'radi. Tashqariga chiqarsa qiymati arzonlashib ketadi. Yozuvchi o'zbek oilasining "ichkarisi"ni mana shunday chizadi. Oilaning siri ham, qudrati ham kichik hikoya bag'riga sizdirib yuborilgan.

Polvon tanasi zirqirasa-da, ko'ngli xotirjam. Muallif uning shu holatini o'ziga xos chizgilarda ochib beradi. "Yelkasidan chiqqan ter ko'zyoshiday issiq... Qip-qizil, ko'zyoshiday jizillatadi, sarg'ish chakmonni bag'ir tusiga bo'yab boryapti...". Terning ko'zyoshiday issiqligini aniq his qilasiz. Holat tasviridagi har bir so'z, har bir nafas qahramon portretini ochiqalaydi. Sahargacha qoniga belanib yotgan Polvon asta-sekin o'ziga keladi. Chanqab ketib "balchiqni siqimlab og'ziga solib shimidi." Ahvol shunchalar og'irmidi yoki muallif qahramon holatini chuqurroq ochib berish uchun ko'proq haq berib yuborganmi degan ishtiboh ham yo'q emas, ko'ngilda. Yozuvchi hikoya orqali mahoratning yetuk namunasini ko'rsatib bergan. Aynan hikoyaning burilish nuqtalarida muallifning yuksak san'atkorligi va professional ijodkorligi namoyon bo'ladi. Polvon joni har qancha og'rib, oyoq ostida yotsa-da, shu holidan "Ko'nglida g'alati bir g'urur uyg'ondi". Jism azobda, ko'ngilda halovat bor. Qarama-qarshilik, zidlik Polvon siyratidagi yashirin sifatlarni yanayam ravshanlashtirishga xizmat qiladi. Polvonning mayli, joni og'risin, ammo Xatchani birovga bermaydi. Xatcha Polvonning abgor ahvolini ko'rmagani yaxshi bo'ldi, bu yerda bo'lmagani qo'l keldi. O'zini uning oldida hech qachon bunday kaltakka qo'yib bermasdi. "Ko'zlarini yumarkan, chuqur tin oldi, iljaydi: etiklar qochdi, qochdi!.." E'tibor bering urayotganlar emas, etiklar qochdi. Ketdi emas qochdi, qochdi. Iljayishi ulardan qutulganligi uchunmi... yoki ular aytgan shartni bajarmaganligi uchunmi, sabab ko'ngli buyurganini ado qila olganligida emasmikin... Shu tobda tanasi og'rib, azoblanishi ortsa-da nima uchundir ko'ngli borgan sari xotirjam tortdi. Topgan yechimidan o'zining ko'ngli o'sdi.

Polvon o‘zidan-o‘zining ko‘ngli to‘lib turganda Xatchaning ahvoli qanday edi degan savol tug‘iladi. Hikoya markazida Polvon tursa-da, vaziyatga ko‘ra personajlar o‘rni almashib turadi. Muallif Xatchani biz kutmagan holda taqdim etadi. Polvondagi kutilmaganlik kayfiyati Xatchada ham namoyon bo‘ladi. Muallif ustalik bilan ruhiy tig‘iz sahnalarni ketma-ketlikda berib boradi. Poda yotar joyiga tezak terishni bahona qilib chiqqan Xatcha avvaliga uni tanimadi. Keyin kaltak sababini ham, ahvolini ham so‘ramadi. Ko‘zlari qizargan ayol qo‘rqqanini tiliga chiqaradi “Talog‘imni aytdingizmi?”. Xatchaning ovozi qo‘rqquvdan ko‘ra xavotir kuchliroq edi. Bu talog‘ini kutgan ayolning emas, balki aytib qo‘ygan bo‘lmasin-da, degan hadik va umidsizlikning ovozi edi bu. Ovozda ayni shunday ohangni his qilish qiyin emas. Bu ham muallif mahoratining hosilasidir. Polvon esa aytsam qo‘rqqanidan aytib qo‘ydi, degan ta‘na malomatdan qochgan kishi bo‘lib “Chidaysan endi, Xatcha...” Nima bu yupatishmi, qo‘rqitishmi, iddoami... Nazarimizda, Polvonning o‘tinchi kinoyaga o‘xshaydi ammo bu o‘rinda qorishqlik bor, ya‘ni o‘tinch kinoya bilan birikib ketgan. Polvonning holatidan kelib chiqsak, “chidaysan endi, Xatcha...” deganida “iltimos chidagin men bilan yashashga, ko‘ngin shunga” degan ohanglar ham yashiringanday...

Polvon ko‘nglida gumon hali hamon ko‘lankasini solib turardi, ammo Xatcha “iffatga yor, shubhaga zomin edi”. Tasvirni sharhlashga o‘jizligimizdan, mutolaani davom ettiramiz. “Biror narsa de, shubhalaring bekor de, Xatcha, ko‘nglimni qabartma, belimni bukma, gavharni toshga urmaylik, Xatcha!..” Polvon avvalgi sahnalarda tush ko‘rishni istagan bo‘lsa, endi uyg‘onishni xohlardi. Chunki Xatcha yonida, uyg‘onsa uni yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqmaydi. Undagi kin adovat, araz hammasi bir to‘la yo‘qlikka ketgan, “faqat yuraklarning ola-tasir urgani seziladi, go‘yo butun dasht-u dalalar ularning dupuriga to‘lgan...” Yuqorida Polvonga yerto‘lada dunyo torlik qilgan bo‘lsa, endi uning yuragi dasht-dalalar singari kengayib, dunyo qadar kattalashib ketadi. Dunyoning kengligi yurakka ko‘chib o‘tdi.

Hikoya boshida berilgan “senga shunchalik ko‘ngil qo‘yib edimmi” savolga javob topildi. Ha, shunchalar ko‘ngil qo‘ygan ekanki, o‘zi bilmaydi. Polvon va Xatcha ma‘lum bir vaqtdan beri birga yashaydi, ammo ko‘ngil “sardaftari kovlanmagan”. Muallif ular hayotining bir kunini xotiralar qamrovida ochib beradi. Ko‘ngil beklik qilgan kun hikoyaning asos mohiyatini belgilaydi. Ortiqcha tafsilot yo‘q, barchasi o‘z o‘rnida, ifoda va tasvir mutanosibliigi sizning tuyg‘ularingizga ham ta‘sir qiladi, qahramon holatidagi ko‘tarinkilik sizga ham yuqadi. Hikoyani o‘qirkansiz, voqealarni xuddi kino ko‘rayotganday his qilasiz, havodagi qamchining “vizillagan” ovozi qulog‘ingiz ostidan o‘tganday...

Murod Muhammad Do‘st hikoyada o‘zbek oilasining ichki qo‘rg‘oni sirlaridan hikoya qiladi, borini aytadi, yolg‘oni yo‘q. Polvon va Xatcha munosabatlarida o‘zbek oilasining o‘ta shaxsiy va hech qayerda aytilmaydigan

munosabatlari jonli lavhalarda ochib berilgan. Xotini ketishi bahonasida Polvon o'zi anglamagan tuyg'uni sinovdan o'tkazdi, o'zini imtihon qildi. Muallif ayni shu lahzalarni mantiq tizgini asnosida yoritib beradi. Baxtning suratini ehtirosli va jimjimador ta'riflar bilan emas, o'zbek oilasi timsolida ko'rsatadi. Xatcha ko'nglida kechgan kechinmalar ochiq berilmaydi, Polvon qalbidagi holatlar esa hikoya markaziga olib chiqilgan. Ayolni shunday holatda tasvirlash ham yozuvchining estetik munosabatidan kelib chiqadi. Hikoyada Polvon xarakteri o'ziga xos milliy bo'yoqlarda yorqin va jonli ravishda ochib beriladi. O'rliqi bois sevgisini tan olishga g'ururi yo'l qo'ymaydigan to'pori yigit tanlovi sizni hayratlantiradi. Dasht-u dala kengligi singari Polvonning muhabbati ham toza, pokiza tuyg'ularga boy. Hikoyani o'qirkansiz, muhabbat haqida aytilmagan qo'shiqning xirgoyisini tinglaganday bo'lasiz.

Sanobar TO'LAGANOVA,
adabiyotshunos